



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TASVIRIY IFODALAR
(PARAFRAZALAR)

Xo'jayeva Nargiza Azamatovna

NavDU "O'zbek tili va adabiyoti" 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tilimizni boyituvchi qatlamlardan biri bo'lgan tasviriy ifodalar(parafrazalar) va ularning she'riyatda tutgan o'rni haqida ma'lumot berib o'tilgan. Shu jumladan, Hamid Olimjon she'rlarida keng qo'llaniladigan tasviriy ifodalar haqida fikr yuritilib, ularning she'riyatga beradigan qiymati xususida aytib o'tilgan. Hamda, maqolada sho'rning she'rlarida qo'llanilgan tasviriy ifodalarning ahamiyati muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *tasviriy ifoda, obrazlilik, jozibadorlik, ta'sirchanlik, badiiy nutq.*

Tilimizda shunday so'z qatlamlari borki, ular tilimizning yanada jozibador, ta'sirchan hamda obrazlarga boy bo'lishini ta'minlab beradi. Bu qatlamlardan biri parafrazalar, ya'ni tasviriy ifodalar bo'lib, ijod ahli ushbu qatlamdagi so'zlardan juda unumli foydalanadilar. Chunki, har bir ijodkorning ifodalamoqchi bo'lgan g'oyasi ushbu vositalar orqali yanada tez va samaraliroq amalga oshadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, tasviriy ifodalar badiiylikni ta'minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular, asosan, badiiy va publitsistik uslublarda keng qo'llaniladi. Parafrazalar haqida bir necha ta'riflar keltirilgan. Jumladan, parafrazalardagi bitta so'z har doim o'z ma'nosida bo'ladi, shu jihati bilan ular iboralardan farq qilar ekan.[1.87] Tasviriy ifodalar(parafrazalar)da ham omonim va sinonimlik xususiyatlari uchrab, buni quyidagi misollar tariqasida ko'rishimiz mumkin: Omonim tasviriy ifodalar – "Qora oltin"- 1) neft, 2) ko'mir; "Aql gimnastikasi"- 1)matematika, 2)shaxmat.[2.57] Sinonim tasviriy ifodalar – "G'azal mulkning sultoni", "O'zbek tilining asoschisi" – Alisher Navoiy. "Uyg'onish fasli", "Fasllar kelinchagi" – bahor.[3.43] Endi tasviriy ifodalarning tarixiga to'xtalib o'tsak 20-asrning 50-yillarida parafrazalar dunyo tilshunosligida, ayniqsa, rus tilshunosligida I.Z. Ilin (1954)[4.24], V.P. Utkina (1959)[5.109] lar tomonidan lingvistik jarayon sifatida boshqa hodisa yoki vositalar (istiora, metafora), metonimiya, sinekdoxa, majoz, allegoriya, kinoya, sifatlash(epitet), kichraytirish(litota), mubolag'a(giperbola) bilan bog'liq holda tasvirlangan. Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ushbu qatlam ancha ilgari shakllanishni boshlagan va davrlar nuqtai nazariga qarab rivojlanib, yangilari paydo bo'lib boraveradi, ya'ni ma'lum bir davr talabi va holatiga ko'ra yaratiladi. Bu haqida keltiradigan misollarimizda alohida to'xtalib o'tamiz. Tasviriy ifodalarni tilshunos olimlar turlicha tasniflaydilar, jumladan, V.P. Gorigorev uni "Poetik nutq hosil qilishning eng yorqin, qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri", - deya tavsiflaydi.[6.158] Albatta, ushbu vositalar nutqimizni jozibador, tinglovchi uchun ta'sirchan qilib yetkazib beradi, bir so'z bilan aytganda nutqimizni boyitadi. Yana bir tadqiqotchi olim I.R. Galperin





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

parafrazaga “Bir predmetning ma’lum bir xususiyatini ko’rsatish uchun uni boshqa nom bilan atashdir”, - deya ta’rif beradi.[7.343] Chindan ham unga beriladigan ikkinchi nom ostida uning xususiyati namoyon bo’ladi. Masalan: “Oq oltin” tasviriy ifodasida paxtaning qiymati oltinga tenglashtirilgan bo’lib qimmatbaholik, “O’rmon malikasi” tasviriy ifodasi esa o’rmonlarda keng tarqalgan, ko’rkam ko’rinishga ega o’simlik turidir, shuning uchun uni shu nom bilan atashadi. Galperin parafrazaning til va nutqqa xos turlari haqida aytib o’tib, nutqiy parafrazani mantiqiy va metaforik turlariga ajratadi. Metaforik parafraza metafora yoki metonimiyaga, mantiqiy parafraza esa predmetning o’ziga xos biror-bir xususiyatiga asoslangan bo’lishini izohlaydi.[7.343] Misol tariqasida ko’rishimiz mumkinki, “Dunyo tomi”- Pomir, “Yerning yopinchig’i”- osmon tasviriy ifodalari metaforik, “Sahro kemasi”- tuya, “Baxt va shodlik kuychisi”- Hamid Olimjon kabi mantiqiy tasviriy ifodalardir. Yana bir tadqiqotchi olim I.V. Arnold parafrazani “Predmet nomining o’rnida uning asosiy xususiyatlarini ifodalovchi birikma yoki so’zning ta’rifini ifodalash uchun keltirilgan bo’yoqdor so’z birikmasi sifatida talqin qiladi.[8.384] Ushbu fikrlar ham yuqorida izohlangan fikrlar bilan hamohang. Albatta, tasviriy ifodalarda oddiy so’zga qaraganda bo’yoqdorlik ancha yuqori. Berilgan fikrlarga misol tariqasida biz quyida Hamid Olimjon she’rlariga murojaat qilib, she’riyatda uchrovchi tasviriy ifodalar bilan tanishib, ularning qo’llanilish o’rni va ahamiyatini tahlilga tortamiz. Ijodkorning “O’zbekiston” nomli she’rida:

Bu kun bayroqlar yana,
Qizil karvon kutadi.
Ko’chalarni to’ldirib,
Po’lat otlar o’tadi.[9.8]

“Po’lat otlar” tasviriy ifodasi traktorlarni ifodalab, she’rda qaynab turgan hayot tasvir etilgan. Mustaqil, tinch va osoyishta o’lkadagi insonlar yana o’z hayot yumushlari bilan mashg’ul. Mashaqqatli kunlar ortidan yana baxtli hayot hukm surayotgani aks etgan. She’rning keyingi satrlari esa quyidagicha ifodalangan.

Jo’ra qo’lida ketmon,
Suv ochgali ketadi.
Oq oltinning gullari,
Cho’llab uni kutadi.[9.9]

Ushbu baytda esa “Oq oltin” tasviriy ifodasi qo’llanilgan bo’lib, asosiy kuch, mehnat paxta yetishtirishga yo’naltirilgan edi. Biz yuqorida parafrazalarni davr taqozosiga ko’ra paydo bo’ladi degan edik, ushbu ifoda aynan mana shu jadal mehnat faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Xususan, mustaqillikdan oldingi yillarda paxta eng asosiy mehnat faoliyati bo’lgan. Ijodkorning “Baxtlar vodiysi” nomli she’rida ham bu holat kuzatilgan.

Ko’m-ko’k vodiylarda,
Po’lat izlardan,
Kechayotir qora poyezd.
Uchib,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Qarsillab.

Elektrik tomiridan

Oqqan qonlardan.[9.55]

Xalqning o'tmishi va keyingi jo'shqin, go'zal hayoti tilga olingan bo'lib, bu baytda "Po'lat izlar" tasviriy ifodasi orqali temir yo'llari ma'nosi ifodalangan. Ushbu tasviriy ifoda orqali she'rning badiiy salmog'i oshgan, obrazlilik ta'minlangan. Ijodkorning yana bir "Qiz" deb nomlangan she'rida:

Po'lat qushlar o'rab atrofing,
Uchmoqdadir bulutdan baland.
Uchmoqdadir qaldirg'ochdan tez,
Butun havo qo'shig'iga band.[9.64]

Samolyotlar so'zining o'rnida "Po'lat qushlar" tasviriy ifodasi qo'llanilgan bo'lib, bu she'r shu o'lkaning mardona, el-u yurti uchun butun vujudi bilan xizmat qilgan bir uchuvchi qiz tasviri vositasida, yurtning ana shunday barcha qizlarini madh etadi va g'urur bilan tilga oladi. Ya'ni ushbu she'r yurti uchun o'g'lonlardan kam mardlik, jonbozlik ko'rsatmagan jasur qizlarga bag'ishlangan. Bu she'rda nafaqat mardlik, shu bilan birga sinovlarda ayollarning sabr-bardoshi, irodasi va kuchli sadoqat ifodasini uchratish mumkin. Ushbu she'rda ham mustaqillik yillaridan oldingi davrlar nafasi ufurib turadi. Yurtning ayollari boshidan o'tkazgan qora kunlar, chidab bo'lmas og'ir mehnat, bularning barchasi ularning metin bardoshi o'lchovidir. Po'lat qushlar parafrazasi o'sha jarayonlarni o'quvchilar tasavvurida yanada yaxshiroq gavdalantirgan. Hamid Olimjonning "Bahri" deb nomlangan she'rida ham yuqorida ilgari surilgan fikrlarni anglash mumkin:

Tongda turar hammadan burun,
Sevib ochar dalaga quchoq.
Quchog'iga to'lgan oq oltin,
Xirmonidan o'zi yasar tog'. [9.68]

O'sha paytlarda xalqning butun kuch-u quvvati mana shu "Oq oltin" deb atalgan paxtalarga sarf etilgan bo'lib, bu "Oq oltin"ni yetishtirguncha insonlarning oltindan-da qimmatliroq boyliklari: sog'ligi, qanchadan qancha peshona teri sarf bo'lgan. Oltinlarga teng mehnat ortidan kelgan paxtani qadrlashib, balki, shuning uchun xalq uni "Oq oltin" deya atashgandir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ko'plab mohir ijodkorlar singari Hamid Olimjon she'riyatida ham xalqchilik, hayotiy tasvir ifodalari, shodlik va baxtga intilish, go'zal kunlarga ishonch asosiy o'rinni egallaydi. Bularni ifodalashda esa ijodkor parafrazalardan unumli foydalangan. Shu bilan birga ijodkor ijodining rang-barang qirralari, badiiy mahorati ham alohida tahsinga sazovordir.





1. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1992.-87-b.
2. F. Bobojonov, K.Rajapova. O‘zbek tili. Toshkent, 2017.-57-b.
3. M. Hamroyev. Ona tili.Toshkent, 2012.-43-b.
4. Ильина И.З. Перифраз и его стилистические функции в произведениях Английской художественной литературы: Автореф. Дисс. ...канд. Филол. Наук. – Москва, 1954. – 24 с. (Ilina I.Z. Perifraz yego stilisticheskiye funktsii v Proizvedeniyax angliyskoy khudozhestvennoy literaturi: Avtoref. Diss. ...kand. Filol. Nauk. – Moskva, 1954. – 24 s.)
5. Уткина В.П. Перифрастический оборот в русской художественной Литературе // Известия Крымского педагогического института им. М.В. Фрунзе.– Т. 33, Вып. 1. – Симферополь. 1959. – С. -109. (Utkina V.P. Perifrasticheskiy Oborot v russkoy khudozhestvennoy literature // Izvestiya Krimiskogo Pedagogicheskogo instituta im. M.V. Frunze. – T. 33, Vip. 1. – Simferopol. 1959. –С. -109.)
6. Григорьев В.П. К проблеме перифразы // Сб. Докл. И сообщений Лингвистического общества. – Калинин, 1974. – С.158. (Grigoryev V.P. K problem perifrazi // Sb. Dokl. I soobsheniy lingvisticheskogo obshestva. – Kalinin, 1974. – S. 158.)
7. Galperin I.R. Stylistics / I.R. Galperin. – Moscow: Higher School Publishing House, 1971. – 343 p.
8. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – Флинта, 2005. – 384 с. (Arnold I.V. Stilistika. Sovremenniy angliyskiy yazik. Moskva: Flinta, 2005. – 384 s.)
9. “Xayolimda bo‘lding uzun kun” she’riy to‘plami. – Toshkent, 2019.

